

## **ATOQLI OTLAR ASOSIDA HOSIL BO'LGAN BOSHQA ATOQLI OTLAR HAQIDA**

*Nargiza O'rinova (Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti)*

Tilning ahamiyati va vazifasi haqida gap borganda biz doimo so'zlar, so'z ma'nolari, so'zlarning o'zaro birikuvi, tilning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqida gapiramiz. Bularning barchasi to'g'ri va muhim. Ammo til o'zaro aloqa quroli bo'lishdek ijtimoiy vazifani bajarar ekan, o'ziga xos qonuniyatlarga amal qiladi. Til keraksiz narsalarni o'zida ushlab turmaydi, o'ziga mos kelmovchi hodisalarga qarshilik ko'rsatadi, ulardan voz kechadi. Shu bilan birga, til o'zida mavjud bo'lgan imkoniyat va vositalarni ishga solishda ham ma'lum qoida va qonuniyatlarga amal qiladi. Mana shulardan biri til iqtisodi, ya'ni nutqiy iqtisod qonunidir. Til iqtisodi qonunning yuzaga chiqish usullari ko'p. Ammo mana shulardan eng muhimlaridan biri bitta lisoniy birlik (shakl), vositaning birdan ortiq vazifada ishlatilishidir. Aslida, bu xususiyat tilning betakror mo'jizalaridan biri bo'lib, bunga ko'ra obyektiv olamda mavjud bo'lgan har biri alohida narsa, tushuncha uchun alohida-alohida so'zlar, nomlar yaratavermaydi, balki bir tip, bir guruhga mansub narsalarni umumlashtirib nomlaydi.

Ba'zi obyektlarni nomlash uchun tildagi mavjud atoqli otlar takroran foydalanilgan. Amudaryo (gidronim), Amudaryo (toponim); Cho'lpon (kosmonim), Cho'lpon (antroponim); Beruniy (antroponim), Beruniy (toponim), Beruniy (kosmotoponim) kabi. Bu ham til iqtisodining ko'rinishlaridan biridir.

Bir obyektlar atoqli otini ikkinchi yoki bir necha obyekttni nomlash uchun ko'chirish onomastik tizimda keng tarqalgan usuldir. Atoqli otlarning vazifaviy jihatdan mana shu kabi ko'chirilishi (ko'chishi) onomastik konversiya deb nomlanadi.

So'zlarning nominatsion, ya'ni funksional ko'chishi tildagi keng tarqalgan hodisa bo'lib, bunda bir so'z turkumiga mansub leksemaning boshqa so'z turkumi vazifasiga ko'chishi ko'zda tutiladi. Lekin bu jaryon shunchaki almashinish emas, balki yangi so'z yasash usullaridan biri deb qaraladi: Konversiya – biror lug'aviy asosni so'z hosil qilishning boshqa paradigmasiga o'tkazib yangi so'z yasash.

Konversiya so'z yasashiga oid otlarda hozirga qadar so'z yasashning leksik-semantik usuli yoki leksik-grammatik usuli deb yuritib kelinadi. Oddiy so'zlar, ya'ni turdosh leksikaning konversiya usulida yasali-

shini atoqli otlarning shu usulda yasalishidan farqlash maqsadida atoqli otlar tizimidagi konversiya – onomastik konversiya deb yuritiladi.

Turdosh leksika sathi va atoqli otlar sathidagi konversiyani ajratib atashning ahamiyati shundaki, onomastikaga doir ko'pgina ishlarda konversiya usulining bu ikki tipi farqlanmasdan, qorishtirib talqin qilinadi. Onomastik konversiya atoqli ot yasashning shunday usuliki, bunda o'zbek tilida avvaldan tayyor so'z shakllari atoqli otlik vazifasiga ko'chadi. Masalan, *qo'ng'iroq*, *mang'it* etnonimlari toponimlarga aylanadi, Xorazmiy, Ibn Sino kabi antroponimlar o'sha holatda joy nomi – toponimga o'tadi. Atoqli ot vazifasiga o'tayotgan leksema turdosh leksika yoki atoqli ot bo'lishi mumkin. Atoqli otning qanday lug'aviy negizdan yasalayotgani, albatta, ma'lum farqlarga ega. Chunki turdosh so'zning atoqli otga ko'chishi birinchi bosqich konversiya (nomlanish) bo'lsa, atoqli otning boshqa atoqli ot vazifasiga o'tishi ikkinchi bosqich konversiya (masalan, Oqmachit nomi bilan qishloqning nomlanishi va masjid nomi) yoki uchinchi bosqich konversiya (Xorazm – viloyat nomi, Xorazm – mahalla nomi, Xorazm – kishi nomi) hisoblanadi. Onomastik tizimda hatto to'rtinchi bosqich va undan ortiq bosqichli konversiyalar ham uchrashi mumkin.

Onomastik sistema ichidagi mikrosistemalarga mansub (masalan, antroponomiya, etnonimiya, toponimiya va b.) nomlarning bir-biriga o'tishi tashqi transpozitsiya, aksincha, bitta sinf, razryadga mansub nomning (masalan, toponimning toponimga) o'tishini ichki transpozitsiya, turli leksik kategoriyalar (turdosh leksika)dan toponim yasalishini (qizil – Qizil, ulli – Ulli, oltmish – Oltmish) kategoriyalararo transpozitsiya hisoblanadi. Keltirilgan uchta tamoyilda ham konversiya hodisasi mavjud. Kategoriyalararo transpozitsiyada apellyativ toponegizdan toponim yasalsa, tashqi transpozitsiyada antropotoponimlar, etnotoponimlar hosil qilinadi. Ichki transpozitsiya esa topotoponimlarni yuzaga keltiruvchi jarayondir. Har holda qayd etilgan tamoyillar o'zaro farqlidir. Ichki konversiya onomastika tizimining o'z ichida yangi nom yasash jarayoni bo'lib, bunda atoqli otlarning turli ko'rinishlari toponimlik vazifasiga o'tadi. Chunonchi, Xorazm toponimiyasida ushbu jarayonning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Etnonim toponimga o'tadi: *Mang'it*, *Burqut*, *Uyrot*, *Olchin*, *Arabqishloq*, *Turkmanlar*, *Juzmon*, *Tamabahrin* va b.

2. Antroponimlar toponimga o'tadi: *Qosim Rahmatov fermerlar uyushmasi, Ahmad Yorlaqabov fermerlar uyushmasi, Mirzo Ulug'bek fermerlar uyushmasi* va b.

3. Toponimlar toponimga o'tadi, ya'ni topotoponimlar yuzaga keladi: *Zarafshon, O'zbekiston (k), Urganji (k)* va b.

Transonimizatsiya hodisasi tufayli yuz bergan nomlanish motivlari asosida respublikamiz hududida bir nomning 5 tadan 13 tagacha takrorlanishi kuzatiladi: *Do'stlik, Yettiuy, Yettiuylik, Ko'ltepa, Oqmachit, Oq-qo'rg'on, Eshon, Yangiariq* kabi.

*Topotoponimlar.* Toponimiyada bir obyektning atoqli oti bilan boshqa bir obyektning ham atash, ya'ni obyektlar nomining biridan ikkinchisiga ko'chishi, aniqrog'i toponimdan toponim hosil qilish ma'lum darajada keng tarqalgan xarakterli hodisadir. Bunday nomlar negizida toponim yotsa, ya'ni toponimdan toponim hosil qilinsa topotoponimlar deb yuritiladi. Topotoponim toponimik negizdan hosil bo'lgan toponimdir. Toponimning yangi, qo'shimcha vazifaga o'tishi, asosan, onomastik konversiya – nomni funksional ko'chirish orqali yuz beradi. Topotoponimlarning hosil bo'lishida ikki xil jarayon yorqin ko'zga tashlanadi:

1) yonma-yon, yaqin joylashgan obyektlarning nomi biridan ikkinchisiga o'tadi; 2) aksincha, uzoq joylashgan obyektlarning nomi biri-biriga o'tadi.

Topotoponimlarning hosil bo'lish qonuniyatlari hali toponimiyada yaxshi o'rganilgan emas. Bunga sabab nom ko'chishi murakkab jarayon bo'lsa, ikkinchidan, biridan ikkinchisiga o'tgan nomlarning qaysi biri dastlabki nom ekanini aniq belgilashni talab qiladi. Chunonchi: Langar degan qishloq ham, tog' ham, muqaddas qadamjoy bor yoki Maydonsoy degan qishloq ham, soy ham bor. Qaysi birining nomi qaysisiga o'tgan? Toponimik shakl, dastlab, qaysi obyektning nomi bo'lgan? Bunday masala toponim mansub bo'lgan joyga borib aniqlashni talab qiladi. Bizning Xorazm toponimiyasi yuzasidan kuzatishlarimiz bitta nom (toponim)ning ko'p holda birdan ortiq obyektning nomi bo'lib kelishini ko'rsatdi. To'plagan materiallarimiz orasida 2,3,4,5 tagacha obyektga nom bo'lib kelgan toponimlar mavjud.

Transonimizatsiyalashuv toponimlar leksik-grammatik ko'lamining kengayishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Toponimlarni ma'nosiga ko'ra, tahlil etganda ularni qanday so'zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash

muhim ahamiyatga egadir. Toponimlar toponim uchun asos bo'lgan so'zlarning ma'no va mazmuniga ko'ra yana quyidagi turlarga bo'linadi:

**1. Etnotoponimlar.** Urug', qabila, qavm, millat, xalq nomlari asosida yaratilgan joy nomlari etnotoponimlar deb yuritiladi. Respublikamizda bu xil joy nomlari juda ko'p. Turli hududlarda uchrovchi *Qipchoq, Jaloyir, Nayman, Do'rmon, Mang'it, Qangli, Chimboy, Qurama, Qirg'izqishloq, Tojikqishloq, Qozoqqo'rg'on* singari toponimlar shular jumlasidandir.

**2. Antropotoponimlar.** Kishi ismlari, laqablari, familiyalaridan vujudga kelgan joy nomlari antropotoponimlardir. *Karimdevona, O'rozmergan, Avaz cho'l* kabilar bunga yorqin misoldir. Antroponekronimlarga mozar, qabriston, ziyoratgoh joylarning nomlari kiradi: *Oxunbuva, G'oyibbuva, Xo'ja Abuturob buva, Valipirim, Yigitpirim, Poshshopirim, Xo'ja Ismoil, Oqmozor, Ummatbuva, Xo'japistabuva, Xizirbuva, Qizilmozor, Sadkakmozor* kabilar.

**3. Fitotoponimlar.** O'simlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan joy nomlari fitotoponimlar nomi bilan ataladi: *Jiydaqishloq, Yakkatut, Qatortol, G'o'mayli, Yulg'unzor, Yong'oqlik, Tolzor, Uzumzor, Qamishqo'rg'on, Tolquduq, Hilolko'l, Chinortepa, Tolqishloq, Olmazor, Qayrag'och, To'psada* singarilar.

**4. Zootoponimlar.** Bularga hayvon, qush, parranda va shu kabi boshqa jonivorlarning nomlari bilan atalgan toponimlar kiradi: *Kaptarxona, Chumchuqorol, Baliqliko'l, Laylakko'l, Qashqaldoqko'l, Laqqaliyop, Bedanajoy, Jayraxona, Do'ltakamar, Laylakuya, Tulkiuya, Tulkixona* singarilar.

Transonimizatsiyalashuv antroponimlarning hosil bo'lishida ham faol hodisa hisoblanadi. Maslan, turkiy urug' va qabila nomlariga nisbat berib yasalgan o'zbekcha ism (etnoantropnim)lar ham bor: *Abdal, Abdolnizoz, Arg'inboy, Barlos, Batosh, Bahrin, Baxmal, Boymoq, Boyqo'ng'ir, Bo'ronboy, Bo'ronali, Bo'rongul, Bo'ronoy, Bo'ronnizoz, Do'rmon, Jaloyir, Jag'alboy, Kaltatoy, Kenagas, Lochin, Mang'it, Mang'itoy, Marqa, Nayman, Olchin, Olchinbek, Saroy, Qipchoq, Qirg'iz, Qo'ng'iro't va b.*

Etnoantropnimlar, bir tomondan, o'tmish ajdodlarga hurmatni, bola o'sha ajdodlar davomchisi ekanligini anglatadi, ikkinchidan, tug'ilgan bola o'sha etnosga mansubligini ifodalaydi. Bunday ismlarda bolani yovuz kuchlardan himoyalash ma'nosi ham bor, bolaning o'tmish

ajdodlar, ota-bobolar ruhi qo'llaydi, asraydi degan ishonch ham mavjud.<sup>1</sup>

Quyida boshqa turdagi atoqli otdan hosil bo'lgan antroponimlarning ayrim namunalari yana keltirib o'tamiz.

**Kosmoantroponimlar.** Ba'zi hollarda bolaga ism qo'yishda boshqa narsa va hodisalar, obyektlarning muruvvati deb qarash aks etadi: *Mahdod* (Oyning tuhfasini, sovg'asi), *Mehrdod* (Quyosh sovg'asi), *Mehriyo* (Quyosh tuhfasini).

**Fitoantroponimlar.** Ismning nominativ asosini ko'rkamlik va nafosat namunasi bo'lgan o'simliklar, ayniqsa, gullar nomi tashkil qiladi:

- gullar va ba'zi o'simliklar nomi: *Atirgul*,<sup>2</sup> *Binafsha*, *Boychechak*, *Bo'tagul*, *Gulbeka*, *Gulguna*, *Zarchechak*, *Lolagul*, *Lolaniso*, *Lolaruh*, *Lolaro'y*, *Nargiza*, *Nasrin* (oqgul), *Oqgul*, *Rayhona*, *Ra'no*, *Savsanoy*, *Safsargul*, *Sumanso* (jasmin), *Sunbula* (o'simlik);

- daraxtlar va ularning guli: *Bodomgul*, *Oylargul* (shaftoli guli), *Sambit* (tol), *Sarvi*, *Sarviniso*, *Charos*.

**Zooantroponimlar.** Ismning nominativ asosini hayvonlar va qushlar nomi tashkil qiladi:

- hayvonlar nomi: *Bo'tako'z*, *Kiyikjamol*, *Maraljamol*, *Suvsar*, *Suyg'un* (kiyik), *Qunduz*, *Qunduzbeka*, *Qunduzoy*, *G'azola* (kiyik, ohu);

- qushlar nomi: *Sulgun*//*Suyqun* (qirg'ovul), *Qaldirg'och*, *Qarlig'och*, *Sanduvoch*, *To'ti*, *Maymaxon*, *To'rg'ay* va b.

Ushbu kichik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bir atoqli otning boshqa bir atoqli ot vazifasiga o'tishida muayyan lingvistik va nolingvistik usullar va lisoniy hamda nolisoniy motivlar, sotsiolingvistik omillar asosiy o'rin tutadi.

Tildagi har qanday atoqli ot boshqa atoqli ot vazifasiga o'tavermaydi. Nom boshqa obyekt turi sifatida qo'llanishi uchun nomlash jarayonida ko'zda tutilayotgan maqsad va motivga mos bo'lishi kerak. O'zbek onomastikasida antroponim, toponim, etnonim, kosmonim, fitonim, zoonim kabi onomastik birliklar ichki transpozitsiya asosida atoqli otning bir turi doirasida bir necha obyektning atashi; tashqi transpozitsiya asosida esa atoqli otning bir necha turi doirasida har xil obyektlarni atab kelishi asosiy o'rin tutadi.

<sup>1</sup> Кенжаева С.Э. Узбек антропонимларининг семантик ва социолингвистик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 2011, 10-бет.

<sup>2</sup> Баскаков Н.А. Элемент гул "роза, цветок" в составе каракалпакских имен. Ономастика Средней Азии. М., "Наука", 1978, с. 138-144.